

## HUJUM HARAКATI

Gadayeva Mohigul Muxamedovna

Osiyo xalqaro universiteti

“Tarix va filologiya” kafedrasida assistenti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10578929>

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada tarixda ayollarning paranji tashlagah davri voqealari, sovet hokimiyati davrida majburiy tarzda amalga oshirilgan Hujum harakati haqida soʻz boradi.

*Kalit soʻzlar:* hujum, chachvon, paranji, artel, kooperatsiya.

## ATTACK ACTION

*Abstract.* This article talks about the events of the era of women's veiling in history, the offensive action that was forcibly carried out during the Soviet regime.

*Key words:* attack, chachvan, veil, artel, cooperation.

## АТАКУЮЩЕЕ ДЕЙСТВИЕ

*Аннотация.* В данной статье рассказывается о событиях эпохи женского чадры в истории, о наступательных действиях, насильственно проводившихся во времена советской власти.

*Ключевые слова:* нападение, чачван, завеса, артель, кооперация.

**Hujum** (turkiy tillarda — tajovuz, arabcha hujum) — 1920—1930-illarda sovetlarning Oʻrta Osiyosida olib borilgan va ayollarning mavqeini oʻzgartirish uchun qilingan harakat. 1920-yillarda butun SSSRda ayollarning jamiyatdagi rolini qayta koʻrib chiqish, ularni baʼzi uy ishlaridan ozod qilish, ularga taʼlim olish va erkaklar bilan teng asosda ishlash imkoniyatini berishga qaratilgan siyosat amalga oshirildi. Chunki „Sharq ayollari“ SSSRda ayollarning teng huquqqa ega boʻlmagan toifasi deb hisoblangan. 1920-yillarning oʻrtalaridan boshlab „Sharq ayollarini ozod qilish“ harakati uchun “Hujum” degan maxsus nom paydo boʻldi.

Oʻtgan asrning 20–30-yillari Oʻrta Osiyo mintaqasi ayollari taqdirida tub burilish yasadi.

Ularning turmush tarzi, ijtimoiy faolligi, jamiyatdagi oʻrni, ijtimoiy xulq-atvori tubdan oʻzgardi. Oʻrta Osiyoda kommunistlar oldida odamlarning ongini, turmush tarzini oʻzgartirish vazifasi turar ekan, ular birinchi navbatda islom diniga zarar berish va ayollarni koʻchaga chiqarishni maqsad qildi. Bu yoʻlda ular eng avvalo dinni odamlar uchun zararli eʼtiqod deb eʼlon qildi. Ularning nazdida kommunistik jamiyatda yashaydigan insonlarning eʼtiqodi “kommunistcha dahriylik” boʻlishi lozim edi. Ikkinchi tarafdin, Markaziy Osiyo ayollarining koʻcha kiyimi boʻlgan paranjini yoʻq qilish uchun turli harakatlar boshlashdi. “Hujum”ning ilk tashviqot harakatlari 1924-yilda tashkil etildi. Ammo u muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Sababi, Oʻrta Osiyo mintaqasidagi ayollarning aksariyati diniy eʼtiqod ruhida tarbiya topgan va shu ruhda yashar edi. Shuningdek, koʻpgina erkaklar oilasidagi ayollar koʻchada ochiq yuz bilan yurishini qabul qila olmagan.

Oʻzbek ayollari va qizlarining hayoti asrlar davomida islom dini shariati koʻrsatmalari asosiga qurilgan edi. Sovet hokimiyati oʻrnatilgach, Sharq ayollarini “ozodlik”ka chiqarish, eski turmush tarziga hujum qilish, ayollarning chachvon va paranjisini tashlab yangi zamon qurayotganlar safiga tezroq qoʻshilishi kabi muammolar kun tartibiga qoʻyildi. Bolsheviklar

tomonidan O'rtasiy respublikalarida, xususan, O'zbekistonda bu muammo qisqa muddat davomida shoshilinch hal qilindi.

1925–1926-yillarda “Hujum” harakati sustroq davom etdi. Ammo 1927-yildan bu harakat qattiq avj oldi. Kommunistlar yangi artellar, kechki o'quv kurslari tashkil etib, unga ayollarni jalb etib yoki uyma-uy targ'ibot qilib, ayollarni paranjidan ozod eta olmasliklarini tushunib yetdi va endi boshqacha yo'lga o'tdi. “Hujum” kompaniyasi 1926-yil sentyabrda O'rtasiy xotin-qizlari kengashida e'lon qilinib, uni 1927-yil 8-martdan boshlashga qaror qilindi. 1926-yil dekabrda “Hujum” kompaniyasini o'tkazish uchun O'rtasiy respublikalari, xususan, O'zbekistonda maxsus komissiyalar tuzildi.

1927-yil 8-martda Bolsheviklar Butunittifoq Kommunistik partiyasi MK O'rtasiy byurosining birinchi kotibi I. Zelenskiy boshchiligi bilan Samarqandning Registon maydonida minglab o'zbek ayollari ro'mollarini yechdilar, ularni to'plab, keyin olovda yoqib yubordilar. Shu kuni 10 ming ayol paranjisini tashlagan. Paranjisini olovga ulotirayotgan ayollarni olomondan himoya qilish uchun ko'p sonli militsiya xodimlari to'plandi; ular paranjisini olovga otgan ayollarni maydonga kirishda ham, chiqib ketishda ham qo'riqlab turdi. Keyingi uch oy ichida yana 90 000 ayol paranjini yechdi.

Bu voqeadan so'ng jamiyatda, ayniqsa erkaklar orasida noroziliklar avj oldi, ko'plab Harakat aholining qattiq qarshiligiga duch keldi. O'zbek ayollari va qizlarining hayoti asrlar davomida islom dini shariati ko'rsatmalari asosiga qurilgan edi. Sovet hokimiyati o'rnatilgach, Sharq ayollarini “ozodlik”ka chiqarish, eski turmush tarziga hujum qilish, ayollarning chachvon va paranjisini tashlab yangi zamon qurayotganlar safiga tezroq qo'shilishi kabi muammolar kun tartibiga qo'yildi. Bolsheviklar tomonidan O'rtasiy respublikalarida, xususan, O'zbekistonda bu muammo qisqa muddat davomida shoshilinch hal qilindi, natijada katta yo'qotishlar yuz berdi, ko'plab xotin-qizlar eskilik va xurofot tarafdorlarinnig qutqusi bilan o'z yaqinlari tomonidan o'ldirildi. 1927-1928 yillarda birgina O'zbekistonda ayollar bo'limi a'zolari, klub va kutubxona mudirlari orasidan 2500 dan ortiq ayollar o'ldirilgan. Harakat aholining qattiq qarshiligiga duch keldi. Ilk qurbonlar Surmaxon Shermatova va yosh aktrisa Nurxon Yo'ldoshxo'jayevalar bo'ldi...

Ko'plab xotin-qizlar eskilik va xurofot tarafdorlarinnig qutqusi bilan o'z yaqinlari tomonidan o'ldirildi. O'zbek ayollarini ozodlikka chiqarish va yangi turmushga jalb qilish, darhaqiqat, kerak edi. Biroq bu ishni bolsheviklar va sovet hokimiyati vakillari tanlagan tezkor yo'l bilan emas, balki asta-sekin va bosqichma-bosqich amalga oshirilganda katta qurbonlar va yo'qotishlar bo'lmas edi.

O'zbek ayollarini ozodlikka chiqarish va yangi turmushga jalb qilish, darhaqiqat, kerak edi. Biroq bu ishni bolsheviklar va sovet hokimiyati vakillari tanlagan tezkor yo'l bilan emas, balki asta-sekin va bosqichma-bosqich amalga oshirilganda katta qurbonlar va yo'qotishlar bo'lmas edi.

Lekin shuni ham ta'kidlash lozimki, aksariyat ayollar bunday yangi harakatlarga umuman qo'shilmaydilar va bunday ishlarni o'zlariga ep ko'rmaydilar. Sababi din Turkiston ayollari hayotining ajralmas qismiga aylangan bo'lib, ular maishiy turmushdagi har qanday yangilik va o'zgarishni dinga qarshi chiqish deb hisoblaganlar. XX asrning boshlarida Toshkentda yashagan rus etnografi V. Alekseyev mahalliy xalqning urf-odatlarini o'rganish jarayonida “Toshkent ayollarining hayoti butunlay diniy qobiqda ekan”ligini alohida qayd qilib o'tadi. (Alekseyev V. Sravnitel'naya etnografiya narodov Sredney Azii. M, 1986. S. 26.) So'zining isboti sifatida u

musulmonlar hayotida uchraydigan har qanday marosimlarga diniy tus berilishi va unda ayollar ishtiroki zaruriy bo'lishini keltiradi. Masalan, to'y, aza, mavlud, beshik to'yi, fotiha to'yi, hayit bayramlari kabi marosimlarni, asosan, ayollar tashkillashtiradi. Ular orasida yetakchi bo'lgan ayol o'z qarorini barchaga singdiradi. Bunday hollarda ayollar psixologiyasida din, asosan, o'zi bilan bog'liq turli marosimlarni asrlar davomida shakllanib kelgan marosim va an'analarni to'g'ri va aniq tarkibda o'tkazishdan iborat bo'lib qoladi. Ba'zan ish shu darajaga borib yetadiki, bajarilishi lozim bo'lgan marosimda biror kamchilik yoki xato uchrasa, buni dindan tashqari, deb hisoblaydigan ayollar ham uchraydi. Aslida, bularning sof ilmiy dingan hech qanday aloqasi yo'q.

Etnograflar bunday holatni "din va maishiy hayotning o'zaro haddan tashqari aralashtirib, noto'g'ri va sun'iy bo'lgan sinkretik holatning yuzaga kelishida" deb hisoblaydilar. (Fletcher W. Soviet Believers: The Religions Sector of Population/ Lawrence. 1981. r.67.)

Paranji tashlash tadbirlari 1924-yilda boshlangan bo'lsa ham, Markaziy Osiyoning turli hududlarida 1940-yilgacha, hatto markazlardan uzoq hududlarda 1950-yillargacha paranji yopinishdi. SSSRda paranjining ommaviy yo'q bo'lishi Ikkinchi jahon urushi boshlangan vaqtga to'g'ri kelgan bo'lsa, uning butunlay yo'qolishi 1950-yillarga kelib amalga oshdi.

O'zbekistonda sovetlarning xotin-qizlar bilan bog'liq ijtimoiy-siyosiy tadbiri tufayli o'zbek ayollari ruhan uyg'ondi, ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida erkin, faol qatnasha boshladi. Ammo sovet davrida bu jarayonga bir tomonlama qaralib, faqat ijobiy baho berilgan bo'lsada, osha davrda tegishli ko'plab birlamchi manbalar mahalliy aholining tarixan tarkib topgan turmush tarzi, urf-odatlarini, islom dini bilan bog'liq an'analar hisobga olinmagani bois, bu ishlar salbiy oqibatlar bilan kechganidan dalolat beradi.

#### REFERENCES

1. Ўзбек аёли паранжини қандай ташлади? «Хужум» ҳаракати ҳақида. Дата обращения: 16 ноября 2020. Архивировано 16 ноября 2020 года.
2. O'zbek xotin-qizlarining ozodlikka chiqarish jarayoni va muammolar. Islamova S
3. Qimmatga tushgan ozodlik. A.Yermetov
4. Muxamedovna, G. M. (2023). INNOVATSION TALIM-BUYUK KELAJAK POYDEVORI. *World scientific research journal*, 17(1), 74-76.
5. Muxamedovna, G. M. (2023). UCHINCHI RENESANS DAVRIDA AJDODLARIMIZ MEROSINI ORGANISH ORQALI INTEGRATSION TA'LIMNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH TAMOYILLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 22(1), 35-38.
6. Muxamedovna, G. M. (2023). KREATIV YONDASHUV ASOSIDA DIDAKTIK MATERIALLAR YARATISH MEKANIZMLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 21(3), 12-14.
7. Gadayeva, M. (2023). THE UNIQUE SIGNIFICANCE OF MASTERING SOCIAL SCIENCES DURING THE DEVELOPMENT OF THE NEW UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 2(10), 459-464. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/25292>
8. Gadayeva, M. (2023). THE UNIQUE SIGNIFICANCE OF MASTERING SOCIAL SCIENCES DURING THE DEVELOPMENT OF THE NEW UZBEKISTAN. *Modern*

- Science and Research*, 2(10), 459–464. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/25292>
9. Gadayeva Mohigul Muxamedovna. (2023). HISTORY OF PATRIOTIC WOMEN. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(12), 69–75. <https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue12-12>
  10. Shokir o'g'li, S. U. (2023). MAHALLANING JAMIYAT IJTIMOYIY TARAQQIYOTIDAGI O'RNI. *Научный Фокус*, 1(6), 369-371.
  11. Sadullayev, U. (2023). ABOUT THE EMERGENCE OF THE CONCEPT OF NEIGHBORHOOD. *Modern Science and Research*, 2(12), 722-727.
  12. Sadullayev Umidjon Shokir O'g'li. (2023). THE IMPORTANCE OF THE MAHALLA SYSTEM'S REFORMATIONS IN NEW UZBEKISTAN. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(10), 25–30. <https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue10-05>
  13. Sadullayev Umidjon Shokir o'g'li. (2023). The History of the Creation and Formation of the Neighborhood. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 1(10), 480–485. Retrieved from <https://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/2142>
  14. O'gli, S. U. S. (2023). ELUCIDATION OF ISSUES OF THE HISTORY OF BUKHARA GUZARS IN OA SUKHAREVA AND HER STUDIES. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(11), 30-35.
  15. Sadullayev, U. (2023). ABOUT THE EMERGENCE OF THE CONCEPT OF NEIGHBORHOOD. *Modern Science and Research*, 2(12), 722–727.
  16. Toshpolatova Shakhnoza Shuhratovna. (2023). ETHNOLOGICAL ANALYSIS OF NATIONAL COSTUMES AND RITUALS OF TAJIKS IN THE WORKS OF M. S. ANDREYEV. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(12), 42–47. <https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue12-08>
  17. Toshpo'latova S. (2023). M. S. ANDREYEV-SCIENTIFIC CAREER. *Modern Science and Research*, 2(12), 801–807. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/27191>
  18. Bobohusenov Akmal. (2023). BUXORO VOHSINING ANTIK DAVRI SHISHA BUYUMLARI. *TADQIQOTLAR*, 25(2), 208–211. Retrieved from <http://tadqiqotlar.uz/index.php/new/article/view/307>
  19. Bobohusenov Akmal Ashurovich. (2023). THE MATERIAL CULTURE OF THE TOMBS OF THE ANCIENT AND EARLY MEDIEVAL PERIOD. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(11), 24–29. <https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue11-06>
  20. Vahobovna, S. G. (2021). Khoja Abdulkhaliq Ghijdivani And Its Method. *European Journal of Humanities and Educational Advancements*, 2(10), 39-40.
  21. Srojjeva, G. (2023). LOWER ZARAFSHAN OASIS TOURISM OPPORTUNITIES. *Modern Science and Research*, 2(10), 199–204. Retrieved from Srojjeva G. (Srojjeva , G. (2023). CONTINUITY IN EDUCATION-CHIEF MEZON. *Modern Science and Research*, 2(12), 834–839. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/272382023>). CONTINUITY

- IN EDUCATION-CHIEF MEZON. *Modern Science and Research*, 2(12), 834–839. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/27238><https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/25067>
22. Bafoeva, R. (2023). The concept of family in English, Russian and Uzbek proverbs. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, 1(10), 651–654. Retrieved from <https://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/2279>
  23. Rokhila Bafoeva 2023. The Concept of Education in English and Uzbek Proverbs. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*. 1, 9 (Nov. 2023), 292–296.
  24. Bobojonova, D. (2023). MAHMUD KASHGARI'S WORK" DEVONU LUG'OTIT TURK" IS AN IMPORTANT SCIENTIFIC HERITAGE. *Modern Science and Research*, 2(12), 742-748.
  25. Bobojonova Dilnoza Okhunjonovna. (2023). Mahmud Kashgari's Work "Devonu Lug'otit Turk" is an Important Scientific Heritage. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, 1(10), 538–543. Retrieved from <https://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/2169>
  26. Jabborova Aziza Jobirovna. (2023). THE CATEGORY OF ASPECT IN ENGLISH GRAMMAR. *Academia Science Repository*, 4(05), 10–27. Retrieved from <http://academiascience.com/index.php/repo/article/view/443>
  27. Aziza Jabborova Jobirovna. (2023). Effective Classroom Management: Strategies for Teachers. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, 1(10), 444–450. Retrieved from <http://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/2133>
  28. Ilniyoz o'g'li, S. F. (2023). XIX ASRDA XONLIKLARNING O 'ZARO SAVDO MUNOSABATLARI. *JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING*, 2 (8), 111–114.
  29. Sayfutdinov Feruz Ilniyazovich. (2023). USING GIS SOFTWARE AND THE IMPORTANCE OF DIGITAL HISTORY IN THE STUDY OF HISTORY . *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(10), 31–33. <https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue10-06>
  30. [Sadullayev, U. . \(2024\). THE NEIGHBORHOOD IS THE CRADLE OF VALUES. \*Modern Science and Research\*, 3\(1\), 607–613. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/28343](https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/28343)
  31. [Shokir o'g'li, S. U. \(2023\). MAHALLANING JAMIYAT IJTIMOYIY TARAQQIYOTIDAGI O'RNI. \*Научный Фокус\*, 1\(6\), 369-371.](https://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/2142)
  32. [Sadullayev Umidjon Shokir o'g'li. \(2023\). The History of the Creation and Formation of the Neighborhood. \*American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education \(2993-2769\)\*, 1\(10\), 480–485. Retrieved from https://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/2142](https://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/2142)

33. Shokir o'gli, S. U. (2023). The Essence of State Policy on Youth in New Uzbekistan. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, 1(9), 554-559.
34. Sadullayev, U. (2023). THE ROLE OF THE NEIGHBORHOOD IN RAISING A SPIRITUALLY MATURE GENERATION. *Modern Science and Research*, 2(10), 488-493.
35. Sadullayev, U. (2023). O'zbekistonda xotin-qizlarga berilayotgan e'tibor: mahalla boshqaruvida xotin-qizlarning roli. In *Oriental Conferences* (Vol. 1, No. 1, pp. 551-556). OOO «SupportScience».
36. Sadullayev, U. (2023). THE ROLE OF THE NEIGHBORHOOD IN THE SOCIAL DEVELOPMENT OF SOCIETY. *Modern Science and Research*, 2(10), 755-757.
37. Shokir o'gli, U. S. (2023). MILLIY QADRIYATLARIMIZ ASROVCHISI. *Journal of new century innovations*, 35(1), 79-80.
38. Sadullayev, U. (2023). THE ROLE OF WOMEN IN NEIGHBORHOOD MANAGEMENT IN UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 2(9), 132-135.